

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**XITOY SAYYOHI SYUAN SZYANNING MARKAZIY OSIYOGA
SAYOHATI**

Yuldasheva Feruza Yashin qizi

Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrasи o'qituvchisi

Abdullayeva Gulsanam Shuhratovna

Osiyo xalqaro universiteti. Filologiya va tillar yo'naliishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xitoy sayyohi Syuan Szyanning Markaziy Osiyoga sayohati, uning yoshligi, buddaviylik ta'lomitlari haqida fikr yuritiladi. Syuan Szyanning Markaziy Osiyodagi shaharlar: Samarqand, Toshkent va Balxga ziyorat qilganligi, ushbu shaharlarni o'z zamonida madaniy va ilmiy markazlar sifatida mavjudligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, buddizm, Syuan Szyan, Buyuk Ipak yo'li, maxayana

Syuan Szyan (Xuanzang) Markaziy Osiyodagi o'zining mashhur sayohatlari va izlanishlari bilan tarixda alohida o'rinn tutadi. U VII asrda yashagan va buddizmning yetuk olimi hamda sayohatchisi bo'lgan. Syuan Szyan Markaziy Osiyoga qilgan safarları davomida ushbu hududning tarixiy va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Syuan Szyanning hayoti va maqsadi. Syuan Szyan 602-yilda Xitoyda tug'ilgan va u yerda buddist falsafa bo'yicha bilim olgan. U Buddha ta'lomitining chuqurroq manbalarini o'rganish maqsadida Hindistonga sayohat qilishga qaror qiladi. Ammo bu safar davomida u Markaziy Osiyo, ayniqsa, hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, va Qozog'iston hududlaridan ham o'tadi. Ushbu hududlar o'sha davrda buddizmning muhim markazlari bo'lgan va Hindiston bilan Xitoy o'rtasidagi savdo va madaniy almashinuvning qismi hisoblangan. Markaziy Osiyoga safar. Syuan Szyanning sayohati 627-yilda Xitoyning Chang'an shahridan boshlanadi. U g'arbiy yo'l orqali Tyan-Shan tog'larini kesib o'tadi va O'rta Osiyo shaharlariga keladi. O'sha davrda bu hududlar Buyuk Ipak yo'lining muhim bo'laklari hisoblangan. Syuan Szyan Samarqand, Toshkent va Balx kabi shaharlarni ziyorat qiladi. Ushbu shaharlar o'sha vaqtida madaniy va ilmiy markazlar bo'lib, buddist monastirlar va ta'lim maskanlari bilan mashhur edi. Aytishlaricha, sayohatga o'chlik insonning qonida bo'lishi kerak. Aksincha, aksariyat kishilar qadrdon go'shasini bir umr tark etmagani holda kimlardir bor hayotini sayru sayohatlarda

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

o'tkazishlarini anglash dargumon. Ehtimol, shu bois jahonga mashhur sayyoohlar barcha zamonlarda sanoqli bo'lgan. Savdo karvonlari bilan birga safar qiladimi yohud muqaddas qadamjolarni ziyyarat qilish maqsadida yolg'iz jahon kezadimi, Sharqda ham jahongashtalarga alohida ehtirom bilan munosabatda bo'lingan.

Navqiron budda rohibi Syuan Szyan Xitoydan Hindistonga safar qilishi asnosida yirik karvon sohibi ham bo'lgan, shuningdek oddiy hassaga suyangan holda sodda ziyyoratchi sifatida ham manzildan-manzilga ko'chishiga to'g'ri kelgan. Safar asnosida ko'plab xavf-xatarlarga duch kelgan, talay sarguzashtlarni boshdan kechirgan, bir necha bor o'lim bilan yuzma-yuz kelgan, lekin hatto o'ta og'ir lahzalarda ham hushyorlikni qo'ldan bermagan, yosh butparast sifatida barcha voqealarga faylasufona munosabatda bo'lgan. Safar davomida barcha mashaqqatlarga tishini- tishiga qo'yib chidagan, har qancha og'ir bo'lmasin, ortga qaytishni xayoliga ham keltirmagan. Shu taxlit minglab farsah masofani bosib o'tgan. Ayni shu bois Tan sulolasiga mansub xitoy imperatori Tai Tsun sarguzashttalab Syuan Szyanni "saltanat javohiri" deb atagan. Ovrupoda Marko Polo qanchalik mashhur bo'lsa, Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab yettinchi asrda safar qilgan xitoylik yosh sayyoohning ismi sharifi Sharqda shunchalik mashhur bo'lgan.

Syuan Szyanning "Buyuk Tan sulolasining Xitoydag'i hukmronligi davrida G'arbiy o'lkalar bo'ylab sayohat bitiklari" imperator Tai Tsunga bag'ishlangan. Bu asar dini islom lashkarlari Osiyoni zabit etishi arafasida yozilgan asosiy tarixiy solnoma sifatida qadrlanadi. Unda Buyuk Ipak yo'lining o'ziga xosliklari, g'aroyib tarixiy davr qalamga olingan. O'sha davrlarda jahongashta sayyoohlar ezgulik elchisi, o'ziga xos tadqiqiqotchi, falsafiy va diniy ta'limotlarning targ'ibotchisi vazifasini bajargan. Syuan Szyan Xitoyning Xunan viloyatida 602 yili, ta'lim olish va bilimdonlik an'anaviy tusga ega konfutsiyaparast oilada tavallud topgan. Yetti akasining biri budda rohibi bo'lib, uning ta'siri ostida Szyan sakkiz yoshidan budda bitiklarini o'rganishga kirishadi. O'n ikki yoshidayoq barcha talablarni ado etib, rohib maqomiga erishadi. Ustoziga yagona maqsadi Budda dinining yog'dusini butun olam bo'ylab yoyishdan iborat ekanini bayon etish barobarida yoshi bir necha baravar katta nomzodlardan qanchasini ortda qoldirib, erkaklar ibodatxonasi tinglovchiligiga qabul qilinadi. Syuan Szyan butparastlik ta'limoti, Yirik Doira yohud Maxayana diniy aqidalarini bir necha yil qunt bilan o'zlashtiradi. "Bodhisatva" donishmandligi – axloqiy barkamollik sirlarini o'rganadi. Mazkur falsafiy yo'nalish hamdardlik va mehru shafqat bilan yo'g'rilgan bo'lib, har bir

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

ongli mavjudotga najot yo'lini ko'rsatib berardi. U 622 yili to'la-to'kis rohiblikka qabul qilinadi. Zamondoshlarining xotiralariga ko'ra, yosh rohib baland bo'yli, ochiq chehrali, ko'zлari yonib turadigan, bir so'z bilan aytganda, farishtali xushro'y yigit bo'lgan. Odmi kiyinib, enli belbog' bog'lab yurgani uchun olimona raftorga ega bo'lgan. Ovozi ham nafis bo'lib, betakror joziba bilan yo'g'rilgan. Hamisha jiddiy bo'lib, asl budda rohiblari singari qaddini g'oz tutib yurgan. Syuan Szyan budda matnlarini o'zlashtirish asnosida sanskritdan tarjima qilish jarayonida qator noaniqliklarga yo'l qo'yilishi oqibatida mavhumliklar mavjudligini, shuningdek, qo'lyozmalarining bir necha sahifalari yo'qligini payqagan. Shu bois yosh rohib Shimoliy Hindistonga, butparastlik ta'limoti yuzaga kelgan va uning asoschisi yashagan muqaddas joylarni ziyorat etishga ahd qilgan. Safar asnosida asl budda ta'limoti bayon qilingan kitoblarni olib kelishni mo'ljallaydi. Mazkur ezgu safarga xufyona, ya'ni yarim kechada otlanadi, chunki imperatorga bu g'oya yoqmaydi. Qahramonimiz shu tariqa 629 yili Sian viloyatini tark etib, Xitoyning g'arbiy viloyatlari tomon yo'lga tushadi. Buyuk Ipak yo'lining karvon so'qmoqlari bo'ylab poyonsiz cho'l-biyobonlardan o'tar ekan, yo'l-yo'lakay ochlik va tashnalikdan jon taslim qilgan odamlaru jonivorlarning ustunxonlariga duch keladi. Ziyoratchi Xitoy sultanati sarhadlarini bildiruvchi beshta soqchilik minorasi yonidan o'tib, xitoyliklar "Qum ummoni" deb ataydigan Takla-Makon cho'lini kesib o'tadi. Biyobon cho'l garmseli so'qmoqni zumda g'oyib etar, shu bois to'g'ri yo'l topib yurish oson emasdi. U bir necha marta qaroqchilar hujumiga uchraydi, o'zini yo'lboshlovchi qilib ko'rsatgan, aslida qotil kimsa qo'lida jon taslim qilishiga sal qoladi. Ko'zasi qo'lidan tushib ketib sinadi-da, cheksiz sahroda bir tomchi suv topolmay tashnalik azobini tortadi. Vafodor oti sayyoh joniga ora kiradi – aqlii jonivor uni chashma qoshiga eltadi. Xaritaga, nazar tashlaydigan bo'lsak, sayohatchi Syuan Szyanni na Gobi sahrosi, na Takla-Makon cho'llari qo'rqita olganiga guvoh bo'lamiz. Himolay tog'larini oshib o'tish imkonini bo'lman. Hindistonga eltadigan to'g'ri yo'l yo'q edi. Shu bois osmono'par tog' cho'qqilarini shimoli-g'arbdan, Markaziy Osiyo orqali aylanib o'tish talab etilardi. Shunga qaramay, ayni yo'nalishda ham bir necha baland tog'dovonlaridan oshishga to'g'ri keladi. Ziyoratchi, nihoyat Tangritog' etagidagi Xomi o'lkasiga yetib keladi. Syuan Szyan ro'parasida oppoq qor bilan qoplangan yuksak tog' cho'qqilarini yuksaladi. Yuksak qoyalardan tushgan tog' jilg'alari bilan obod vohadan o'tadigan Buyuk Ipak yo'lining Shimoliy shaxobchasi bo'ylab sayohatchi rohib Turfon shahriga yetib keladi. Syuan Szyanning tashrifidan xabar topgan Turfon hukmdori mash'ala bilan peshvoz

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

chiqib kutib oladi. Sayohatchi sharafiga katta hurmat-ehtirom bilan ziyofat yushtiriladi. Bir necha kun hordiq chiqargandan keyin yirik karvon va soqchilar, muhofaza maktubi va boshqa davlatlarning sultonlariga hadyalaru ehsonlar bilan yana yo'lga tushadi. Syuan Szyan hamrohlari bilan Turfondan chiqib, Qashqar zamini bo'ylab Tangritog' tizmalariga ro'para bo'ladi. Ular Xontangri uzra qor bilan qoplangan dovondan oshadi. Mazkur xatarli sayohat chog'ida Syuan Szyan hamrohlarining qariyb uchdan bir qismidan ayrıldi, o'nlab otlari nobud bo'ladi. Son jihatdan ancha g'ariblashgan karvon Issiqko'l bo'yida chodir tikadi. Syuan Szyan mazkur "iliq ko'l"ning "suvin rangi ko'kintir-qora, ta'mi achqimtil va sho'rroq" ekanini ta'kidlaydi. G'arbiy Turk hoqonligining xoni Issiqko'l sohilidagi qarorgohida qishlab, yozni qadimiy Shoshda o'tkazishi shohidi bo'ladi. Syuan Szyan turk xoqoni bilan 630 yil qish fasli oxirlarida To'qmoqda uchrashadi. Ovdan qaytgan xoqon sayyohni ehtirom bilan qabul qiladi. "Xon sabzarang zarboft to'n kiygan, boshiga bog'langan shoyi dastor peshi orqasiga tashlangan. Atrofida ikki yuztacha a'yonlari bo'lib, ular ham shohona zarboft to'n kiygan, ularning boshida ham salsa bo'lgan. Xonning o'ng va so'l tomonidagi soqchilar mohirona to'qilgan movut va mo'yna kiyimda bo'lib, tuyalar va otlar uzra qo'llarida nayzalar va tug'lar ushlagancha salobat bilan o'tirishgan. Ularning hisobini bir qarashda chamlash mushkul edi". Syuan Szyan Turk xoqoni bilan ilk uchrashuvini ana shunday bayon etadi. Rohib Turfon hukmdorining maktubi va sovg'alarini xonga hadya qiladi. O'z navbatida ziyofatga taklif qilinadi. "Xon chodiri ko'zni qamashtiradigan zarrin matolar bilan bezatilgan. Barcha a'yonlar uzun bo'yralardan joy olishgan. Ularning egnidagi shoyi kiyimlar ham ko'zni qamashtirgan. Xonning xos soqchisi orqasidan joy oldi, u ko'chmanchilar hukmdori bo'lsa ham atrofida belgilangan tartib hukm surardi", deya hayrat bilan bayon etadi rohib sayyoh. Dasturxonga hil-hil pishgan qo'y va mol go'shtlari mo'l-ko'l tortiladi. Syuan Szyandan bo'lak barcha bo'zayu sharoblarni bearmon ichib, musiqa sadolari ostida niholday tebranib, ayshu ishrat qiladi. Go'sht yemaydigan rohibni guruch non, qaymoq, qimiz, qandu novvot, asal va kishmish bilan siylaydilar. Turk xoqoni bilan suhbat asnosida Syuan Szyan barcha jonzotlarni e'zozlash zarurligiga urg'u berib, pirovard-natijada, najot keltiradigan diniy ta'limot haqida so'zlaydi. Syuan Szyan bu joydan jangchi hamyurti bilan xonning o'z vassali – Gand-har hukmdoriga muhofaza maktubi bilan yo'lga chiqadi. G'arbiy xoqonlik sultoni esa unga ellik toy shoyi va qizg'ish-qoramtil atlas to'n hadya qiladi.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

Markaziy Osiyoda buddizmning ahamiyati. Syuan Szyanning yozuvlariga ko'ra, Markaziy Osiyo shaharlarida buddizmning kuchli ta'siri mavjud bo'lgan. Bu hududlar Xitoy va Hindiston o'rtasida madaniyat va din almashuvi markazlari bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Samarqandda buddist monastirlar va buddist ta'limotini o'rgatuvchi maktablar mavjud bo'lgan. Syuan Szyan o'z kundaliklarida bu hududlardagi buddist ta'limotining tarqalishi va rivojlanishi haqida ko'plab ma'lumotlar beradi. Syuan Szyanning Markaziy Osiyoga qilgan safarlari va yozuvlari nafaqat buddizm tarixi, balki bu hududning umuman tarixiy va madaniy rivojlanishi haqidagi muhim manbalar hisoblanadi. U Xitoyga qaytganidan so'ng, u o'zining sayohati haqida kitob yozgan va bu kitob keyinchalik tarixiy tadqiqotlarda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan. Uning asarlari orqali biz O'rta Osiyoning VII asrdagi madaniy hayoti, diniy qarashlari va xalqaro aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar olishimiz mumkin. Syuan Szyanning safarlari va izlanishlari Markaziy Osiyoda buddizmning ta'sirini ko'rsatib beradi, shuningdek, bu hududlarning Buyuk Ipak yo'lida muhim strategik va madaniy markaz bo'lganligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Rustam Mirzayev –Muqaddas qadamjolar. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 yil, 11-son.
- 2.G'aybullha Boboyorov. To'n Yabg'u-xoqon. T.:2011
- 3.Гумилёв Л.Н. “Қадимги Турклар” Т..”Фан” нашрёти 2007 бет 353
- 4.Кляшторний С. Г. Қадимги туркий руник ёдгорликлар Ўрта Осиё тарихи бўйича манба сифатида. М., 1964; бет 15
- 5.Sayfutdinov , F. (2024). ETHNIC COMPOSITION OF THE ZARAFSHAN OASIS (2ND HALF OF THE 20TH CENTURY). *Modern Science and Research*, 3(1), 577–581. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28335>
6. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, . (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF KARAKALPAK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 20–27. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04>

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

7. Sayfutdinov, F. (2024). HISTORIOGRAPHY OF INFORMATION ABOUT THE POPULATION OF THE ZARAFSHAN OASIS. (20TH CE4NTURY). *Modern Science and Research*, 3(2), 911–914. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29503>
- Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
5. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
6. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
7. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
8. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.